


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

"TASDIQLAYMAN"
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari
 **K. Karimov**
2023-yil _____ dekabr



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI USLUBCHILARINING
MALAKASINI OSHIRISH KURSINING
O'QUV DASTURI**

Toshkent - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

*Uslubchilarning malaka oshirish kursining o‘quv dasturi Professional ta’limni
rivojlantirish instituti Ilmiy kengashining 2023-yil _____dagi ____-sonli
bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan*

Tuzuvchilar:

Institut boshqarma boshlig‘i **A.Xayitov**,
Kafedra mudirlari, **J.Shosalimov**,
N.Sirojiddinova
Institut bosh mutaxassislari **F.Yusupov**,
A.Zakirov, **N.Charshanbiyev**.

Taqrizchi:

Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti
bo‘lim boshlig‘i, p.f.f (PhD) doktori
M.Innazarov

Toshkent-2023

KIRISH

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 106-son, 2023-yil 7-dekabrda "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 648-son qarorlari ijrosini ta'minlash.

Malaka oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan professional ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, davlat ta'lim talablar asosida uslubchilar malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini kredit-modullari orqali muntazam oshirishni nazarda tutadi.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan Uslubchilarning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tadbiq etish darajasini oshirishni nazarda tutadi.

Bevosita ta'lim muassasasida malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi bloklaridan iborat:

1. Ta'limda boshqaruv
2. Boshqaruvda huquqiy masalalar
3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar
4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik
5. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik
6. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
7. O'zini-o'zi rivojlantirish
8. Tinglovchilar bilimini baholash

Malaka oshirish kursning maqsadi va vazifalari

Uslubchilar uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish kursining maqsadi - ta'lim muassasalarida o'quv jarayoblarini tashkil etish va boshqarish, o'quv jarayonlarini boshqarishning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning o'quv jarayonlarini boshqaruviga oid kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

o'quv guruhlarini, to'garaklar va o'quvchilar uyushmalarini shakllantirishda ishtirok etish, pedagog xodimlarga o'qitish mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini aniqlashda yordam berish;

pedagogik xodimlarga tegishli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha maslahat va amaliy yordam ko'rsatish, tegishli yo'nalishlar bo'yicha xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etishda ishtirok etish;

o'quv, o'quv-mavzu rejalar, fanlar va o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tuzish;

o'quv-metodik hujjatlar, qo'llanmalar (o'quv fanlari, qurilmalar namunaviy ro'yxati, didaktik materiallar va hokazo) ishlab chiqishni, ularga taqriz berishni va tasdiqlashga tayyorlashni tashkillashtirish;

o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari, texnologiyalari va ishlanmalarini faol qo'llash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Ta'limda boshqaruv", "Boshqaruvda huquqiy masalalar", "Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar", "Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik", "Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik", "Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish", "O'zini-o'zi rivojlantirish" bloklari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar Direktorning ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'rinsosarlari malakasini oshirish kursining mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

O'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quydagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda komitensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

ta'lim tashkilotida tanlangan ta'lim dasturini o'zlashtirishda ta'lim jarayoni xususiyatlari (o'ziga xosligi), ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan talablarni;

ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, psixologik-pedagogik va tashkiliy-uslubiy asoslarini;

ta'lim jarayonining dasturiy-uslubiy ta'minoti, o'quv va boshqa hujjatlar, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni yuritish va ulardan foydalanish masalalarini tartibga soluvchi ta'lim tashkilotining lokal (ichki) normativ hujjatlarini;

o'quv rejasi, taqvim o'quv rejasi, o'quv predmetlar, kurslar, fanlar (modullar)ning ishchi dasturlari, boshqa tarkibiy qismlar, shuningdek baholash va uslubiy materiallarni ishlab chiqishning asosiy bosqichlarini;

zamonaviy o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalarga, elektron ta'lim resurslariga va boshqa uslubiy materiallariga qo'yiladigan talablarni;

o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan o'quv predmetlar, kurslar, fan (modul)lar dasturlarini, amaliyotlarni, darslartahlilini amalga oshirilishini monitoring qilish va sifatini baholashni;

o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakalarini (kompetensiyalarini) baholashning zamonaviy yondoshuvlari, usullari va monitoring qilish vositalarini;

muassasa pedagogik xodimlari metodik uyushmalari ishi mazmuni va uni tashkil ettirish tamoyillarini;

o'quv-dasturiy hujjatlar, ixtisosliklar bo'yicha o'quv rejalari, ta'lim dasturlari, o'quv qurilmalarining namunaviy ro'yxati va boshqa o'quv metodik hujjatlarni ishlab chiqish tamoyillari va tartibini **bilishi** kerak

Tinglovchi:

o'quv, o'quv-mavzu rejalar, fanlar va o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tuzish;

o'quv-metodik hujjatlar, qo'llanmalar (o'quv fanlari, qurilmalar namunaviy ro'yxati, didaktik materiallar va hokazo) ishlab chiqishni, ularga taqriz berishni va tasdiqlashga tayyorlashni tashkillashtirish;

pedagogik xodimlarning metodik uyushmalari ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish, konferensiyalar, seminarlar, tanlovlar, ko'rgazmalar, olimpiadalar, musobaqalar va hokazolarni o'tkazish bo'yicha zarur hujjatlarni ishlab chiqish;

nashr etilayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, videomateriallar, audiovizual va boshqa o'qitish vositalari xususida pedagog xodimlarni xabardor qilish va maktabning ularga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish;

ilg'or pedagogik texnologiyalar tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish, o'qitish va tarbiyalashning samarali texnologiyalarini amalga oshirishni tashkil qilish;

ta'lim muassasasi faoliyatiga qo'yilgan sanitariya-gigiena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish bo'yicha **ko'nikma va malakalarga** ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi bir oy 24 kredit 144 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlari bo'yicha kredit ballarini to'plagan va modullarni to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Uslubchilar malakasini oshirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. TA'LIMDA BOSHQARUV

1.1. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar siyosati

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatining mazmun mohiyati. O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Konsepsiyasi. Yuksak ma'naviyatli rahbar - bugungi davr talabi ekanligi. Yuksak ma'naviyatli rahbarlarni shakllantirish: muammo va yechimlar. Kadrlar siyoati ijtimoiy hamkorlik va sheriklik asosida. Mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar atyyorlash. Inson kapitalini optimal rejalashtirish. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish. Mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan ishlar.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. Konstitutsiya yoshlar bilim olishining qonuniy asosi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi mazmun mohiyati. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi: maqsadlar va kutilayotgan natijalar.

II. BOSHQARUVDA HUQUQIY MASALAR

2.1. Professional ta'limda meyoriy-huquqiy va o'quv-meyoriy hujjatlar

Professional ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Professional ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining o'quv jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari. Kasb standartlari bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim tizimini jihozlashga oid normativ-huquqiy asoslar. Ta'lim tizimi faoliyatini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslari. O'quv-me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash va nazorat qilish. Professional ta'limda huquq-tartibotni ta'minlash tushunchasi, mohiyati, prinsiplari, vazifalari va kafolatlar masalalari. O'quv yuklamalarini rejalashtirish.

2.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish, "Halollik vaksinasi"

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonuni mazmun mohiyati. Ta'lim tashkilotida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish. Ta'lim oluvchilar uchun adolatli shart-sharoitlarni hamda teng imkoniyatlarni yaratish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik masalalari. Manfaatlar to'qnashuvining oldini

olish va uni bartaraf etish. "Halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa. Muassasada korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish.

III. BOSHQARUVDA MOLIYAVIY-IQTISODIY MASALALAR

3.1. Professional ta'limda amaliyotlarni tashkil etish masalalari

O'quv amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazishning zamonaviy shakllari va usullari. Amaliyotga yo'llanmalarni tashkil etish, amaliyot bazalari bilan ishlash. Amaliyot davrida o'quvchilarning huquq va majburiyatlari. O'quv amaliyot mashg'ulotlari hisobotini rasmiylashtirishga qo'yilgan talablar. Amaliyot natijalarini baholash. O'quvchilarga amaliyot o'tash davrini bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish. Amaliyotchilarni qabul qiluvchi amaliyot rahbariga qo'yiladigan talablar.

3.2. Ta'lim jarayonini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari

Investitsiyalar mohiyati va ularning turlari. Ta'lim jarayonini rivojlantirishning iqtisodiy yo'nalishlari. Ehtiyojlar va resurislari. Ta'limda raqobatga bardoshlilikni belgilash. Muassasada pullik ta'lim xizmatlarini joriy qilish. Ta'lim sohasida nodavlat xizmatlar ko'rsatish. Ta'lim muassasalarida ochiq dars va master-klasslarni tashkil etish va o'tkazish tartibi. Tadbirkorlik tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik konsepsiyasi mohiyati.

IV. BOSHQARUVDA MAS'ULIYAT VA MOSLASHUVCHANLIK

4.1. Pedagogik xodimlarga dasturiy-uslubiy yordam ko'rsatish

Pedagogik xodimlarga dasturiy-uslubiy yordam ko'rsatish. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish shartlari. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.

Pedagog kadrlar salohiyati, pedagog kadrlar lavozim vazifalarining malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash. Pedagog shaxsining intellektual va emotsional profili. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish yo'llari. Pedagogik xodimlarning malaka toifasini oshirishga uslubiy yordam.

V. BOSHQARUVDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA MEDIASAVODXONLIK

5.1. O'quv jarayonlarini raqamlashtirish va elektron dasturlar

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Axborotlashtirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy asoslar. Avtomatlashtirilgan tizimlar, boshqaruv va kompyuter texnologiyalari. Ta'lim axborotini saqlash usullari telekommunikatsiyalardan foydalanadigan ta'lim muassasasining maydoni; axborot dasturiy paketlari, axborot platformalari va ma'lumotlar bazalari, global Internetdan faol foydalanish. O'quv-uslubiy ma'lumotlar bazalarini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ta'lim

muassasalari xodimlarining ishlanmalaridan foydalanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron yaratish ta'lim resurslari.

Axborot va interaktiv davlat xizmatlari. Internet tarmog'idagi kasbiy faoliyatga oid portallardagi dasturiy vositalardan boshqaruv jarayonida foydalanish. Elektron platforma. Data Science va Suniy Intlekt. Raqamli ta'lim resurislari ishlab chiqish. Elektron portfolio tizimidan foydalanish.

VI. KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

6.1. Elektron ta'lim resurislari va uslubiy materiallarni ishlab chiqish kompetensiyasini rivojlantirish.

Elektron ta'lim resurislari va uslubiy materiallarni ishlab chiqish. Raqamli ta'lim resurislari va ularning taqdimoti va mazmuni bo'yicha turlari. O'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari, texnologiyalari va ishlanmalarini faol qo'llashning mohiyati. Zamonaviy elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan talablar qo'llanmalar, elektron o'quv resurslari va boshqa uslubiy nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar. Elektron ta'lim resurislari har xil turlari. Smart texnologiyalar zamonaviy tendensiya sifatida.

6.2. STEAM va STRAM ta'lim xususiyatlari

STEAM-ta'lim xususiyatlari. Ta'limga STEAM yondashuv va kreativlik O'quvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish. STRAM ta'lim xususiyatlari. Ta'lim muassasasi o'quvchisining kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. STEAM va STRAM ta'lim texnologiyalarini ommalashtirish.

6.3. Sanitariya-gigiyena talablari va mehnatni muhofaza qilish

Sanitariya-gigiyena talablari. Tashkilotda ta'lim uchun xavfsiz muhitni yaratish tamoyillari. Ta'lim muassasasi xodimlarining ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar va o'quv jarayonini qoidalar talablariga muvofiq va xavfsizlik va sog'liq standartlari. O'quv jarayonini tashkil etishda mehnatni muhofaza qilish talablari va sanoat amaliyoti (amaliy mashg'ulot) talabalar. Mehnatni muhofaza qilish va mehnatni muhofaza qilish siyosatining aspektlari tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, qulay va xavfsiz mehnat sharoitlari, ijtimoiy kafolatlar. Mas'uliyat standartlari rahbarligida talabalarning hayoti va salomatligi boshqaruv va pedagogik xodimlar. Ta'lim muassasasida tartib va ongli intizomni ta'minlash masalalari. Ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarida talabalarning hayoti va sog'lig'i uchun mumkin bo'lgan xavflarni bartaraf etish choralari.

VII. O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH

7.1. Dual ta'limni rivojlantirish

Dual ta'limning o'ziga hosligi va mohiyati. O'quv va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish talabalar. Ishchilarning rivojlanishini tashkil etish va monitoring

qilish mexanizmlari mutaxassisliklar bo'yicha talabalar uchun amaliyot dasturlari. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joylari va shartlariga qo'yiladigan talablar. Amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan joylarga qo'yiladigan talablar (o'quv, ishlab chiqarish ustaxonalari). O'quv amaliyot bazalari va boshqa tuzilmaviy ta'lim muassasasining maxsus jihozlangan bo'limlari. Amaliyotchi pedagogik xodimlarning malakasiga qo'yiladigan talablar, o'quv amaliyotini o'tkazish. O'quv mashg'ulot jurnallarini va dual ta'lim kundaligini yurilishini nazorat qilish. Dual ta'limda davlat atestatsiyalarini tashkil etishi va uning o'tkazishi.

7.2. Ta'limda o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish

Ta'limda o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish usullari. Zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan talablar qo'llanmalar, elektron o'quv resurslari va boshqa uslubiy nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar. Ta'lim resurslarining har xil turlari. Tayyorlanayotgan kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim resurslari. Aspektlar ta'lim resurslarini ishlab chiqishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Ta'lim resurslarini ishlab chiqish normalari va talablari. O'quv jarayoniga o'quv-uslubiy majmualar, o'quv qo'llanmalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish tartibi.

7.3. Ehtiyojga asoslangan modullar

Ehtiyojga asoslangan modullar ishchi o'quv rejasida aks ettirilib, tinglovchilar tanlovi asosida tashkil etiladi. Tinglovchilar tanlagan modullarga 3 kreditdan oshmagan holatda soatlar taqsimlanadi.

VIII. TINGLOVCHILAR BILIMINI BAHOLASH

Malaka oshirish kursida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori o'zlashtirsa, modul uchun ajratilgan kredit beriladi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi. Tinglovchilar bilimni baholash har bir blok va uning modullarining mazmunidan testlar shakllantiriladi va belgilangan talablar bo'yicha amalga oshiriladi.

Yakuniy nazoratlar

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni.
6. 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
7. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.
11. 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qaror.
12. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'riida" gi 106-son qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 648-son qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quv asbob-uskunolari va anjomlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" 2017-yil 2-iyundagi 345-son qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" 2017-yilning 12-yanvaridagi PQ-3271-son qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X., va b. Personalni boshqarish. Darslik.-T.: "Iqtisodiyot", 2013.
2. Xudoyberdiyev U. Abdiqobilov Sh. "Investitsiya: mohiyati, turlari va samaradorligi": Risola/; -Samarqand.: SamDchti. Nashiriyoti, 2019-yil 27-b.
3. Ansoff I. Strategicheskiy menedjment / SPb.: Piter, 2009.
4. Barinov V.A., Xarchenko B.L. Strategicheskiy menedjment. — M.: Infra-M, 2005.
5. Vesnin V.R. Strategicheskoe upravlenie. — SPb.: TK Velbi, Prospekt, 2006.
6. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti, Toshkent "VORIS-NASHRIYOT" 2006.
7. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" "Nihol", -T.2013.
8. Sharifxo'jayev M.Sh, Abdullayev Yo. "Menejment".- Darslik. 2001.
9. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ta'lim menejmenti.-T, 2006.
10. Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar ma'suliyati. -T.: Akademiya, 2011.
11. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatini nazariy asoslari. "Fan", Toshkent. 2006.
12. Xudoyberganov Q.T., Nurmuxamedov T.R. va b. Xodimlar menejmenti. Darslik. T.: 2010.

Internet manbalari:

1. <https://onlinedu.uz/>
2. <http://lex.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.uzedu.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.bimm.uz>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.wikipedia.org>
9. <http://www.oecd.org>

Professional ta'limni rivojlantirish instituti
professional ta'lim muassasalari uslubchilari malakasini oshirish
kursining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Professional ta'lim muassasalari uslubchilari uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish kursining o'quv dasturi bugungi kundagi o'quv jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar va ularning hal etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda tinglovchilar bilishi kerak bo'lgan eng dolzarb va zamonaviy mavzularni o'z ichiga qamrab olgan.

Shu bilan birga professional ta'lim muassasalari uslubchilariga ta'limda ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribalarni o'rgatish, ta'lim muassasalarini boshqarishning moliyaviy- iqtisodiy masalalariga doir bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish, mafkuraviy kompetentligi va mas'uliyatini oshirish, o'quv jarayonida optimal qarorlar qabul qilish texnologiyalarini o'rgatish, uslubchilarning o'quv metodik faoliyatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash malakalarini rivojlantirish kabi masalalarni malaka oshirish kursi davomiyligida yoritib berish maqsad qilib qo'yilgan.

Dastur mazmunida O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, ta'limda boshqaruv, boshqaruvda huquqiy masalalar, moliyaviy- iqtisodiy masalalar, mas'uliyat va moslashuvchanlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, tinglovchilar bilimini baholash bloklarini o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

O'quv dasturi dasturlarni ishlab chiqish talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib ushbu dasturni amaliyotga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti bo'lim boshlig'i



PhD. M.A. Innazarov